



UNIVERSITÄT
HOHENHEIM



**EKOLOGIYA,
ATROF MUHITNI ASRASH VA
YASHIL MAKON: MUAMMO,
YECHIMLAR VA NATIJALAR
MAVZUSIDAGI XALQARO
ILMIY-TEXNIK ANJUMAN**

TO'PLAMI

QARSHI 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“EKOLOGIYA, ATROF MUHITNI ASRASH VA
YASHIL MAKON: MUAMMO, YECHIMLAR VA
NATIJALAR”

MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI
TO‘PLAMI

2025-yil 30-31 may

Qarshi-2025

kamaytirish har bir davlat, korxonalar va fuqaroning mas'uliyatli yondashuvini talab qiladi. Faqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash orqali barqaror va yashil kelajakka erishish mumkin.

Adabiyot:

1. Islomov Sh.I. – *Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.– Sanoat chiqindilari va ularning ekologik oqibatlarini haqida muhim ma'lumotlar.
2. Tursunov A.A. – *Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari*. – Toshkent: Fan, 2020.– Sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'siri bo'yicha fundamental tushunchalar.
3. Karimov S.S. – *O'zbekiston sanoati va ekologik xavfsizlik*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.– Mahalliy sanoat tarmoqlari va ularning atrof-muhitga ta'siri tahlili.
4. Xolmuhamedov A. – *Sanoat ekologiyasi*. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2018.– Sanoat chiqindilari, gazlar va texnologik ifloslanish turlari haqida.
5. Qodirov B.X. – *Ekologik xavfsizlik va monitoring*. – Toshkent: Ekosan, 2022.– Sanoat faoliyatining ekologik nazorati va monitoring tizimi haqida.
6. Odum E.P. – *Основы экологии*. – Москва: Мир, 2004.– Ekotizimlar, ifloslanish va antropogen ta'sirlar haqida asosiy qo'llanma.
7. Rachel Carson – *Silent Spring* (Tinch bahor). – Boston: Houghton Mifflin, 1962.– Sanoatning zaharli kimyoviy moddalar orqali tabiatga salbiy ta'sirini ochib bergan klassik asar.
8. Гладкий Ю.Н., Мильков Ф.Н. – *Геоэкология*. – Москва: Высшая школа, 2000.– Sanoat va geografik muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qilgan asar.
9. UNEP Reports (United Nations Environment Programme) – *Industrial Pollution Guidelines*, yillik ekologik monitoring ma'lumotlari.
10. World Bank Report – *Pollution Prevention and Abatement Handbook*. – Washington, D.C., 1998.

CHO'L MINTAQASI HUDUDIDAGI QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rustamov J.R. - Yerdan foydalanish geodeziya va geoinformatika kafedrasini assistent o'qituvchi
Qarshi Davlat Texnika Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolamda kadastr tizimi, uning tashkiliy-huquqiy va boshqaruv shakllari tegishli ma'lumotlarni, kadastr tizimi, uning tashkiliy-huquqiy va boshqaruv shakllari tegishli bo'lgan ba'zi ma'lumotlarni olishingiz mumkin. bu maqolada kadastr tizimi, uning tashkiliy-huquqiy va boshqaruv shakllari va ular bilan ishlashda qo'llaniladigan ba'zi bir preborlarni uchratishingiz, ularni kuzatishingiz mumkin. Agarda maqolamda bazi bir kamchiliklar bo'lsa buning uchun men oldindan sizlardan uzr so'rayman.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, yer hisobi, davlat korxonasi, xususiy korxonalar.

Аннотация: В данной статье вы можете найти информацию, связанную с кадастровой системой, ее организационно-правовыми и управленческими формами, а также некоторую информацию, связанную с кадастровой системой, ее организационно-правовыми и управленческими формами. В данной статье вы сможете ознакомиться с кадастровой системой, ее организационно-правовыми и управленческими формами, а также некоторыми принципами работы с ними. Если в моей статье есть какие-либо недостатки, заранее приношу извинения.

Ключевые слова: сельское хозяйство, учет земель, государственное предприятие, частное предприятие.

Kirish: Yer jamiyat boyligining asosini tashkil etadi. Insoniyat uchun moddiy boyliklarni yaratish va ishlab chiqarishni xom-ashyo bilan ta'minlashning tabiiy negizidir. Moddiy boyliklarni ishlab chiqarishda yer asos va ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yerning ahamiyati juda ham katta. Bunda yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi. Ishlab chiqarish jarayoni va insoniyatning turmushi farovonligi yer va undan foydalanish bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun ham yerdan oqilona foydalanish insoniyat oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Yer tabiat mahsuli bo'lib, tabiatning asosiy ajralmas qismlaridan biridir. Tabiatning butunligini, barcha qimlarining bir biri bilan uzviy bog'liqligini hisobga oladigan bo'lsak, yerdan foydalanish jarayonida tabiatning boshqa qismlarga ham ta'sir qilishimizni tushunib olish qiyin emas.

Cho'l hududlarida qishloq xo'jaligi yerlarida ekinlarni joylashtirish qator muammolar bilan bog'liq. Bu muammolarning aniq tahlili va ularni hal etish yo'llari qishloq xo'jaligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Cho'l mintaqalarida qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritish qator ekologik, iqlimiy va agrotexnik xususiyatlarga ega. Ushbu hududlarda yer resurslaridan samarali foydalanish va qishloq xo'jaligi ekinlarini to'g'ri joylashtirish o'ta muhim hisoblanadi. Cho'l hududlarida dehqonchilik qilish ko'pgina omillarga bog'liq.

1. Tabiiy-iqlim sharoiti

Cho'l mintaqalarida qishloq xo'jaligi yerlari quyidagi xususiyatlarga ega:

- **Yog'ingarchilikning kamligi** – yillik yog'ingarchilik 100–300 mm oralig'ida bo'lib, bu ekinlar uchun yetarli emas.
- **Yuqori harorat va issiqlik darajasi** – yoz faslida havo harorati +40°C va undan yuqori darajaga chiqishi mumkin.
- **Kuchli bug'lanish** – suvning bug'lanish tezligi yog'ingarchilik miqdoridan ancha yuqori bo'lib, bu yerlarni sug'orish zaruratini keltirib chiqaradi.
- **Shamollar va qurg'oqchilik** – doimiy shamollar va qurg'oqchilik tufayli tuproqning nam saqlash qobiliyati pasaygan.

2. Tuproq-ximiyaviy xususiyatlari

- **Tuproq tarkibi** – asosan qumloq, sho‘rlanishga moyil va kam unumdor tuproqlar uchraydi.
- **Sho‘rlanish jarayonlari** – suv tanqisligi va namlik kamligi tufayli, cho‘l yerlari ko‘pincha sho‘rlangan va degradatsiyaga uchragan bo‘ladi.
- **Gumus miqdori kam** – o‘simlik qoldiqlari kamligi sababli gumus miqdori past bo‘lib, tuproq unumdorligini oshirish uchun maxsus agrotadbirlar talab etiladi.

3. Cho‘l hududlarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyatlari

- **Sug‘oriladigan dehqonchilik** – sug‘orish tizimlari orqali paxta, g‘alla, sabzavot va bog‘dorchilik mahsulotlari yetishtirish imkoniyati mavjud.
- **Cho‘l-sho‘r yerlar uchun maxsus ekinlar** – jo‘xori, kungaboqar, beda, tuyakarang kabi quruqchilikka chidamli ekinlardan foydalanish tavsiya etiladi.
- **Agrotexnika va tuproqni himoya qilish tadbirlari** – shamol va suv eroziyasining oldini olish uchun ko‘p yillik o‘tlar, himoyaviy o‘rmon polosalari va qatlamli sug‘orish tizimlari joriy etilishi lozim.

4. Cho‘l hududlarida yer resurslaridan foydalanish muammolari

- **Suv resurslarining kamligi** – suv tanqisligi tufayli qishloq xo‘jaligini yuritish uchun innovatsion sug‘orish texnologiyalari (tamchilab sug‘orish, tumanli sug‘orish) talab etiladi.
- **Sho‘rlanish va yerlar degradatsiyasi** – sho‘rlanishga qarshi drenaj tizimlarini yaratish, biologik meloratsiya tadbirlarini qo‘llash zarur.
- **Ekologik muammolar** – global iqlim o‘zgarishi cho‘l hududlarida quruqlik va degradatsiya jarayonlarini tezlashtiradi, bu esa yerlarning hosildorligini pasaytiradi.

5. Cho‘l hududlarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha takliflar

- **Geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish** – qishloq xo‘jaligi yerlarining holatini monitoring qilish, samarali sug‘orish usullarini aniqlash va ekinlarni joylashtirishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish muhim.
- **Tuproq unumdorligini oshirish** – organik o‘g‘itlar qo‘llash, tuproqni mulchalash va noan’anaviy ekin turlarini yetishtirish.
- **Suv resurslarini tejash** – zamonaviy irrigatsiya texnologiyalarini qo‘llash va suv tejamkor usullardan foydalanish.

Mamlakatimiz yer fondi 44,5 mln hektarni tashkil etadi. Shundan 57,3 foizi qishloq xo‘jaligi uchun ajratilgan. Arid iqlim sharoiti, ya’ni yog‘ingarchilik miqdorining namlik havoga ko‘tarilishiga nisbatan kamligi respublikamizda qishloq xo‘jaligi asosan sug‘orma dehqonchilik asosidagina rivojlanishi mumkinligini belgilab beradi. Suv resurslarining cheklanganligini hisobga oladigan bo‘lsak, sug‘oriladigan yerlarning qadr qiymati qanchalik yuqori darajada ekanligini tasavvur qilish qiyin emas. Sug‘oriladigan yerlar mamlakatimiz yer fondining 9,7 foizinigina tashkil etadi. Asosan cho‘l va saxro mintaqalarida joylashgan tabiiy yaylovlarning hosildorligini juda ham pastligi, qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yerlarning qisman sho‘rlanganligi, tuproq eroziyasiga uchraganligi va boshqa tuproq

unumdorligiga ta'sir etuvchi jarayonlarning paydo bo'layotganligi respublikamiz yer fondidan samarali foydalanishni tashkil etish masalasining dolzarbligini ko'rsatadi.

Yer va suv resurslarining cheklanganligi, aholi sonining doimiy o'sib borishi yerga nisbatan tejamkor munosabatda bo'lishni, undan oqilona va to'la samarali foydalanish zaruratini oldimizga qo'yadi.

Yerdan foydalanishni tashkil qilish va bu jarayonni doimiy ravishda takomillashtirib borish qiyin masala bo'lib, yerning hosildorligini doimiy ravishda ogirib borish, tuproq eroziyasiga va boshqa unumdorlikni pasaytiruvchi omillarga qarshi kurashishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida yer davlat mulki – umumilliy boylik hisoblanadi. Undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muxofaza etiladi. Davlat yerning asosiy xo'jayini sifatida yer fondiga egalik qilish, ulardan to'g'ri foydalanishni ham yuritishi zarur. Shunday qilib, yer kadastrining obyekti – mamlakat yagona yer fondidir, ya'ni kimning ixtiyorida bo'lishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasidagi barcha yerlardir. Yer fondi yerlaridan foydalanishning asosiy maqsadiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligi yerlari – qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun yoki ana shu maqsadlarga mo'ljallangan yerlar;
2. Aholi punkti yerlari (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining yerlari), shahar va pos'yolka chegaralari doiralaridagi, shuningdek, qishloq aholi punktlari chegaralshaxar va posyolka chegaralari doiralaridagi, shuningdek, qishloq aholi punktlari chegaralari doirasidagi yerlar;
3. Sanoat, transport, aloqa, mudofa maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar;
4. Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtrish, rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar;
5. Tarixiy-madaniy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar;
6. O'rmon fondi yerlari;
7. Suv fondi yerlari;
8. Zaxira yerlari.

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar deb hisoblanadi. Bu yerlar qishloq qishloq xo'jaligi faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiyalar, o'rmonlar, berk suv havzalari, binolar va inshootlar bilan band bo'lgan yerlarga ajratiladi. Xaydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar (bog'lar, tokzorlar va boshqalar) egallagan yerlar qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan relar doimiy yoki vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish maqsadlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish kooperativlariga (shirkatlarga), boshqa qishloq xo'jaligi korxonalar, muassasalari va tashkilotlariga, fermer xo'jaliklarini tashkil etish va yuritish, dehqon xo'jaligini, xususiy bog'dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish, jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligi uchun Respublika fuqaroligiga, yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanolmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga beriladi.

Qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berib qo‘yilgan yoki shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar deb hisoblanadi. Bu yerlar qishloq xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo‘jalik yo‘llari, kommunikatsiyalar, o‘rmonlar, berk suv havzalari, binolar va inshootlar bilan band bo‘lgan yerlarga ajratiladi. Xaydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, bo‘z yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar (bog‘lar, tokzorlar va boshqalar) egallagan yerlar qishloq xo‘jaligi yerlari jumlasiga kiradi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar doimiy yoki vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish maqsadlarida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish kooperativlariga, boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalarini, muassasalari va tashkilotlariga, fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va yuritish, dehqon xo‘jaligini, xususiy bog‘dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish, dehqon xo‘jaligini, xususiy bog‘dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish, jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi uchun respublika fuqarolariga, yordamchi qishloq xo‘jaligini yuritish uchun qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga beriladi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarini irrigatsiya va suvdan foydalanish tizimiga asoslangan sun‘iy sug‘orish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi va yerlardan foydalanish hamda ular unumdorligini oshirishning shartidir. Qishloq xo‘jaligida foydalanish va sug‘orishni ta‘minlay oladigan sug‘orish manbasi bilan bog‘langan doimiy yoki muvaqqat sug‘orish tarmog‘iga ega bo‘lgan yerlar sug‘oriladigan yerlar jumlasiga kiradi. Sug‘oriladigan yerlar maxsus maxsus muxofaza qilinadi, ularni sug‘orilmaydigan yerlar sirasiga o‘tkazish alohida xollarda, tuproq-meliorativ va iqtisodiy sharoitlarni hamda yerlarning suv bilan ta‘minlanganligini, ulardagi mavjud suv resurslarini va bu suvlarga belgilangan me‘yorlashni e‘tiborga olib, viloyat hokimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan xolda amalga oshiriladi.

Uzbekiston Respublikasining hududi ikki xil geografik mintaqa (zona)da joylashgan. Bu mintaqalardagi iqlim sharoiti, relyef tuzilishi, usimliklar olami va tuproqlarning tarqalishi ma‘lum qonuniyatlarga asoslangan.

Birinchi geografik hudud — bu quruq iqlimli, asosan pasttekisliklardan iborat chul mintaqasi. Bu hudud umumiy maydonning 71,7% ini tashkil etadi.

Ikkinchi geografik hudud — iqlim sharoiti yumshoqroq va namli, tog‘ oldi va tog‘liklardan iborat cho‘l-dasht mintaqasi bulib, umumiy maydonning 28,3% ini tashkil etadi.

Tuproqni geografik rayonlashtirish — bu har bir hududning joylanishi, relyef tuzilishi, iqlim sharoiti va tuproqlariga ilmiy asosda ta‘rif berishdir. Rayonlashtirish ma‘lum tartib, ya‘ni tuproqlarning tekislik va balandlikdagi uzgarishi mintaqaviylik (zonallik) va provinsiyallik qonunlari asosida utkaziladi.

O‘zbekiston hududi Turon tuproq iqlim provinsiyasiga qarashli bulib, umumiy o‘zgaruvchanlik (yog‘ingarchilik, o‘simliklarning tarkibi va qalinligi, suvning bug‘lanish miqdori va h.k.) shimoldan janubga va garbdan sharqqa qarab sezilarli darajada o‘zgaradi.

Tuproq iqlim provinsiyasi bir-biridan yer yuzasining orografik belgilari (tog‘ chuqqilari, suv ayirgichlar) bilan chegaralanadi. Provinsiya ichidagi okruglar bir-biridan iqlim sharoiti, geologik tuzilishi, relyefi, tuproq hosil qiluvchi yotqizikdar va

tuprokdari bilan farqlanuvchi vodiy va daryo vohalaridir. Bunday okruglardan O'zbekistonda 8 tadir:

1. Ustyurt okrugi — shimoli-g'arbda joylashgan, cho'l mintaqasining shimoliy qismi. Ustyurt okrugi asosan yaylov sifatida chorvachilikda keng foydalaniladi. O'zlashtirish uchun yer ko'p bo'lishiga qaramay suv yetishmasligi tufayli dehqonchilik olib borish juda ham qiyin.

2. Kuyi Amudaryo okrugi — Qoraqalpog'iston Respublikasining bir qismi va Xorazm viloyati hududi. Dehqonchilikda keng foydalaniladi. G'o'za, beda, makkajo'xori, sholi va boshqa ekinlar yetishtiriladi. Agro va gidromeliorativ tadbirlarni amalga oshirish lozim, yer rezervlari ko'p.

3. Qizilqum okrugi — Qoraqalpog'iston hududining katta qismi, Buxoro, Samarkand viloyatlari, Mirzacho'l, Dalvarzin dashtlari, Nurota, Turkiston tog'larining shimoliy yonbag'ridagi Jizzax va Sirdaryo viloyatlariga qarashli yerlar. Sug'oriladigan dehqonchilik okrugining shimoliy qismida joylashgan Mirzacho'l va Dalvarzin dashtlarida olib boriladi. Tog' oldi qismida bahorikor don ekinlari ekiladi. Chorvachilik (qorako'lchilik) keng rivojlangan.

4. Chirchiq—Ohangaron okrugi — Chirchiq va Ohangaron daryolarining vohasi. Sirdaryoning o'rta oqimi, Toshkent viloyatiga qarashli Tyanshan tog' tizmasining g'arbiy qismidagi tog' oldi va tog'li qismlarni tashkil etadi. Sug'oriladigan va bahorikor dehqonchilik, o'rmon xo'jaligi va yaylov chorvachiligi keng rivojlangan. Meliorativ tadbirlar o'tkazish zarurati yo'q.

5. Farg'ona okrugi — shimoli-sharqdan Chotqol va Farg'ona, janubdan Oltoy va Turkiston tog' tizmalari bilan o'ralgan (Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari hududi). Dehqonchilik asosan meliorativ tadbirlar bilan birga olib boriladi. Yangi sug'oriladigan yerlar faqat Markaziy Farg'onani uzlashtirish hisobiga ko'payib bormoqda.

6. Zarafshon okrugi — Zarafshon daryosining vohasida joylashgan (Buxoro va Samarkand viloyatlari hududi). Sug'oriladigan, bahorikor dehqonchilik, chorvachilik rivojlangan. Cho'l tuproqlar mintaqasida meliorativ tadbirlarni amalga oshirish zarur.

7. Qashqadaryo okrugi — Qashqadaryo viloyati hududi. Okrug shimoli-sharq va janubi-sharqdan Zarafshon va Hisor tog' tizmalari bilan o'ralgan. Sug'oriladigan, bahorikor dehqonchilik, o'rmon xo'jaligi va chorvachiligi rivojlangan. Okrugning cho'l qismida so'nggi yillarda sug'oriladigan dehqonchilik meliorativ tadbirlar bilan birgalikda amalga oshirilmoqda.

8. Surxondaryo okrugi — Surxondaryo viloyati hududi. Shimoli-g'arb va shimoli-sharqdan hisor tog'lari bilan o'ralgan. Sug'oriladigan, bahorikor dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan. Cho'l mintaqasida so'nggi yillarda sug'oriladigan dehqonchilik meliorativ tadbirlar asosida amalga oshirilmoqda.

Qashqadaryo viloyati tuproqlari va ularning xolati

Viloyatda quyidagi tuproqlar tarqalgan bo'lib, ulardan sug'oriladigan va lalmikor dehqonchilikda keng foydalanilmoqda. Lalmi jigarrang tuproqlar mexanik tarkibiga ko'ra o'rta va og'ir qumoqlidir. Eroziyaga uchramagan tuproqlarning ning haydalma qatlamidagi gumus miqdori 2,2-4,9% ni, kuchli yuvilmagan tuproqlarda 1-2% ni tashkil etadi. Yalpi azot miqdori 0,10-0,2% dan iborat. To'q tusli bo'z lalmi tuproqlar mexanik tarkibiga ko'ra o'rta qumloqlidir. Bu tuproqlarning gumus

miqdori 0,6-2,6% ni, yalpi azot 0,04-0,18% ni tashkil etadi. Sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlar mexanik tarkibiga koʻra yengil, oʻrta va ogʻir qumolardan iboratdir. Bu tuproqlarda gumus miqdori ustki qatlamda 0,9-1,6 atrofida tebranib turadi. Ushbu qatlamda umumiy azot 0,06-0,12%, umumiy fosfor esa 0,16-0,20% ni tashkil etadi. Lalmi tipik boʻz tuproqlar mexanik tarkibiga koʻra oʻrta, ogʻir va yengil qumolardan iborat. Bu tuproqlarda gumus miqdori 1,2-2,1%, yalpi azot 0,04-0,12% ni tashkil etadi. Sugʻoriladigan och tusli boʻz tuproqlar viloyatda keng tarqalgan boʻlib, uzoq vaqt sugʻorilishi natijasida ularning katta qismi yarim gidromorf va gidromorf tuproqlarga aylangan. Gumus haydalma qatlamda 0,8-1,5% oraligʻida tebranib tursa, pastki qatlamlarda 0,5-0,7% gacha kamayadi. Umumiy azot miqdori esa 0,05-0,15 %, umumiy fosfor esa 0,22-0,35% ni tashkil etadi. Och tusli boʻz tuproqlar shoʻrlanishga moyil boʻlganligi sababli, koʻp hollarda kuchsiz va oʻrtacha shoʻrlangan boʻladi. Sugʻoriladigan boʻz-oʻtloqi tuproqlar boʻz va oʻtloqi tuproqlar oraligʻidagi oʻtuvchi tuproqlar hisoblanadi. Bu tuproqlarning haydalma qatlamida 0,6-1,5%, azot 0,04-0,04% oraligʻida oʻzgarib turadi. Sugʻoriladigan boʻz-oʻtloqi tuproqlarda umumiy fosfor miqdori 10,12-0,21%, umumiy kaliy esa 1,5-1,8% ni tashkil etadi. Mexanik tarkibiga koʻra xilma-xil boʻlib, qumloqli va yengil qumolardan oʻrta va ogʻir qumoligicha oʻzgarishi mumkin. Ushbu tuproqlar shoʻrlaniga moyil hisoblanadi. Tarqalish mintaqasiga bogʻliq ravishda shoʻrlanmagan tuproqlardan tortib, kuchsiz va oʻrtacha shoʻrlangan tuproqlargacha uchrashi mumkin. Sugʻoriladigan sur qoʻngʻir-oʻtloqi tuproqlar mexanik tarkibiga koʻra yengil qumolli va qumolidir. Bu tuproqlarning gumus miqdori 0,4-0,8% ni tashkil etadi. Sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlar tipik va och tusli boʻz tuproqlar mintaqasi hamda choʻl mintaqasining turli geomorfologik yerlarida sizot suvlari 1-2,5 metr chuqurlikda joylashgan sharoitlarda shakllanadi. Tuproqlarning haydalma qatlamida gumus miqdori 0,7-1,6%, umumiy azot 0,03-0,11%, fosfor 0,09-0,23%, kaliy esa 1,4-1,8% gacha oraliqda tebranib turadi. Sugʻoriladigan oʻtloqi allyuvial tuproqlar viloyatning choʻl mintaqasida yer osti suvlari 1,5-2,5 metr chuqurlikda joylashgan daryo yoyilmalari hamda qadimgi allyuvial, prolyuvial-allyuvial yotqiziqalarda shakllangan. Sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlar mexanik tarkibiga koʻra koʻp hollarda oʻrta va ogʻir qumolardan iborat boʻlib, turli darajada shoʻrlanishga uchragan. Sugʻorilish davriga koʻra bu tuproqlar qadimdan sugʻoriladigan oʻtloqi allyuvial, yangidan sugʻoriladigan oʻtloqi allyuvial va yangidan oʻzlashtiriladigan oʻtloqi allyuvial tuproqlarga ajratiladi. Sugʻoriladigan sur qoʻngʻir-oʻtloqi tuproqlar boshqa oʻtuvchi tuproqlar singari avtomorf aynan sur tusli qoʻngʻir tuproqlarni sugʻorish natijasida paydo boʻlgan boʻlib, bu tuproqlar gumusga kambagʻal (0,4-0,8%) hisoblanadi, shoʻrtoblashgan, baʼzi joylarda kuchsiz darajada shoʻrlanishga chalingan. Mexanik tarkibi boʻyicha sugʻoriladigan sur qoʻngʻir-oʻtloqi tuproqlar yengil qumolli, baʼzan qumloqli turlari uchraydi.

Sugʻoriladigan taqirli-oʻtloqi tuproqlar Qashqadaryo viloyatining qadimgi allyuvial deltali tekisliklarida taqirli tuproqlarni keng oʻzlashtirish va sugʻorish taʼsirida hosil boʻlgan. Bu tuproqlarning haydalma qatlamida gumus 0,5-1,1%, umumiy azot 0,04-0,10%, umumiy fosfor 0,11-0,14% oraliqda tebranib turadi. Mexanik tarkibiga koʻra tuproqlar yengil va oʻrta qumolli hisoblanadi. Bu tuproqlar kam va oʻrtacha darajada shoʻrlangan tuproqlar qatoriga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.I.Ixlosov Davlat Kadastr Asoslari

2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.
3. (42-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 14-apreldagi 183-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2004-y., 15-son, 179-modda
- 4.lex.uz
- 5.advice.uz
6. A.R. Bobojonov, Q.R. Rahmonov G‘ofirov A.J YER KADASTRI

UO‘K 621.9;504.062

QIZILQUM TOG‘ OLDI HUDUDI AHOLISI VA TEXNOGEN OBYEKT XODIMLARING YILLIK EFFEKTIV DOZALARI

Muzafarov A.M. – kimyo fanlari doktori, professor

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Mamatqulov O.B. – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Nurmurodov L.T. – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), assistant,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda Nurobod, Zafarobod va Nurota hududlarida tashqi gamma nurlanish (E_1), radon (E_2), alfa radionuklidlar (E_3) va ichimlik suvidagi nurlanish (E_4) bo‘yicha yillik effektiv doza aniqlanib, sanoat hududlarida bu ko‘rsatkichlar yuqoriroq ekani, biroq ruxsat etilgan me‘yordan pastligi qayd etildi. Tibbiy jihatdan, bu ko‘rsatkichlar radiatsiya ta‘siridan kelib chiqadigan sog‘liq muammolarini, jumladan, saraton xavfini baholashda muhim bo‘lib, doimiy monitoring va profilaktika choralarini talab etadi.

Kalit so‘zlar: Yillik effektiv doza, radiatsiya xavfi, radon, alfa-nuklidlar, ichimlik suvi, meditsina, sog‘liqni saqlash, gamma-nurlanish.

Abstract. In this study, the annual effective dose was determined for external gamma radiation (E_1), radon (E_2), alpha radionuclides (E_3), and radiation in drinking water (E_4) in the regions of Nurobod, Zafarobod, and Nurota. It was noted that these indicators are higher in industrial areas, but remain below the permissible limits. From a health perspective, these indicators are important for assessing risks associated with radiation exposure, including the risk of cancer, and require continuous monitoring and preventive measures.

Keywords: Annual effective dose, radiation risk, radon, alpha-nuclides, drinking water, health, public health, gamma radiation,

Radioaktiv elementlarning miqdorlari va radiatsion ko‘rsatkichlar kattaliklarini har bir lokal hudud uchun aniqlash usullarini takomillashtirish va bu takomillashtirilgan usullarni amaliyotga qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish hudud radioekologik holatini ilmiy-eksperimental asosda nazorat qilishda katta ahamiyatga egadir.

O‘zbekistonda tog‘ oldi hududlar va texnogen obyektlardagi radiatsion ko‘rsatkichlar monitoringining yadro-fizik usullarini ishlab chiqish va bu hududlardagi aholi va ishchi-xodimlarga radiatsion ta‘sirni kamaytirish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga qo‘llash zarurligi bo‘yicha nazariy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Bunga misol qilib 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining uchinchi yo‘nalishi bo‘yicha ilg‘or

3.	Usmonov K.M., Axmedov Sh.Sh. Neft va gaz quduqlarini burg'ulash va qazib chiqarish jarayonlarida atrof-muhitni va atmosferani himoya qilish	161
4.	Yaqubov T.B., Botirova B., T Sodiqov D.T. Gazni qayta ishlash sanoati korxonalarining tuproqdagi og'ir metallar miqdoriga ta'sirini tahlili	168
5.	Usmonov K.M., Axmedov Sh.Sh. Neft va gaz konlarini ishlatish jarayonida yer osti va atrof-muhitni muhofaza qilish	174
6.	Bektashev Sh.M., Boymurodov X. T., Turniyozova N. R., Turexanov F.F., Adilov S. A., Jalilov F.S., Egamqulov A. N., Mirzamurodov O., Izzatullaev X.Z. Unionidae va Corbiculidae oilasi ikki pallali mollyuskalarining Yangier va Chirchiq baliqchilik xo'jaliklarida tarqalishi	173
7.	Maxmatqulov N.I., Samadova N. D. Iqlim o'zgarishi natijasida tabiiy ofatlar zararni iqtisodiy baholash	183
8.	Мирзаева Г. С. Негативное воздействие промышленных предприятий на окружающую среду в эпоху глобального изменения климата	189
9.	Kiyamov A. Z. Sanoat korxonalarining atrof muhitiga salbiy ta'siri va bartaraf etish tadbirlari	193
10.	Rustamov J. R. Cho'l mintaqasi hududidagi qishloq xo'jaligi yerlarining o'ziga xos xususiyatlari	197
11.	Muzaffarov A.M., Mamatqulov O.B., Nurmurodov L.T. Qizilqum tog' oldi hududi aholisi va texnogen obyekt xodimlarning yillik effektiv dozalari	204
12.	Абдуганиев Н. Н. Воздействие строительной отрасли на окружающую среду	210
13.	Ochildiyev O.Sh., Begamov B.X., Hasanov.H.A., Tovoshareva I.E. Atmosfera havosiga zararli ta'sirlarni baholash tizimi (termiz shahar misolida)	214
14.	Ashurmahmatov S.I. Ekologik ta'lim va madaniyatni rivojlantirishda oilaning o'rni	218
15.	Xo'jaqulov F. N. Ekologik jarayonlarni matematik tahlil qilish orqali ifloslanish manbalarini aniqlash	222
16.	Ennazarova G.O'. Avtomobillardan chiqadigan zaharli gazlarning daraxtlarning morfologik va anatomik belgilariga ta'siri va reaksiyasi	227
17.	Muradov Sh.O., Mamanov J.G'. Qashqadaryo viloyatida og'ir metallarni o'rganish va ayrim qonuniyatlarni aniqlash	231
18.	Ibragimova N.E., Alimov Z.B. O'zbekiston sharoitida PM2.5 tarkibidagi birlamchi va ikkilamchi aerozollarni kimyoviy tahlil asosida	234
19.	Jumaeva N.R. Oqova suvlarni tozalashdan hosil bo'lgan chiqindilardan o'g'it tayyorlashda xorij tajribasi	240